

BERDAQ-ADOLAT KUYCHISI

*Yusupova Dilorom - 222-guruh davolash ishi fakulteti
Meliqo'ziyeva Guljahon - 302-guruh 1-pediatriya fakulteti
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Berdaqning hayoti ijodi haqida, u poetik,badiiy quadratdan tashqari ,umuman,bilim jihatidan ham kuchli shaxs bo'lgan.Uning asarlarida qoraqalpoq xalqi hayotiga doir tarixiy ,jug'rofiy,lisoniy,adabiy,pedagogic nodir ma'lumotlardan tashqari jahon madaniyatiga doir Arastu,Aflatun, Attor, Bedil, Firdavsiy, Navoiy, Fuzuliy, Mahtumquli, Xorun-ar Rashid, Iskandar Zulqarnayn kabi siymolarga,"Xidoya"asari,Edige,Alpomish , Baxrom,Gulandon kabi badiiy qahramonlar haqidagi fikrlar keltirilgan

Kalit so'zlar: Berdaq, doston, Maxtumquli, poetik,

Berdaq jamiyatdagiadolatsizlik, tengsizlikni asarlarida ko'rsatar ekan, yorug'lik , ozod turmush istagi uchun kurashni sinfiy kurash darajasida aka ettirgani yo'q .Biz sho'ro mafkurasiga moslab shoir she'rлari ,dostonlaridan ba'zan shunday fazilatni zo'rma -zo'raki izlashga harakat qildik.Berdaq dostonlariga jiddiyroq nazar tashlasangiz ,aslida bunday emasslugining guvohi bo'lasiz .Zero Berdaq dostonlari sho'ro davri qo'ymoqchi bo'lgan ilmiy-nazariy talablardan ko'ra ,aks ettirilgan hayotining o'ziga yaqinroq edi.Chunki bu asarlar xalq ehtiyoji ,hayot talabi va ta'sirida tug'uldi,noroziliklar esa o'z tabiyiligicha aks ettirildi.Berdaq ba'zan xalqqa yordam berishga Xudoni chaqirdi va nola qildi ("Panoh ber")."Kerak"she'rida esa odil podshoh kelishiga umid bilan qaradi.Ayni vaqtida ,uning ijodi murakkab jarayonlarni ,ziddiyatlarni ham boshdan kechirdi. "Kerak" she'rida esa odil podshohni orzu qilgan bo'lsa, boshqa bir she'rida "dunyo dunyo" bo'libdiki,odil podshoh bo'lganmi?"-deb umidsizlikka ham tushadi.

Shu o'rinda Berdaq ijodi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida ikki og'iz gapirib o'tmisht joiz bo'ladi.Berdaq ijodiga ta'sir ko'rsatgan bosh omil,avvalambor, hayotning o'zi edi albatta.Biroq,ta'sirlanish ,ijodiy o'rganish ,mahoratning takomillashuvi nuqtai nazaridan Berdaq ilhom uch buyuk buloqdan suv ichdi deyish mumkin .Bular:Navoiy ,Fuzuliy,Mahtumqulidir. Berdaqning o'zi g'urur bilan:

Navoiydan savod ochdim,

Fuzuliydan durlar sochdim.-

deb yozgani bejiz emas.Berdaq ijodining ildizlari esa,shubhasiz,o'zigacha yashab ijod etgan vatandosh shoirlarga hamda qudratli va ko'rkam qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiga borib bog'lanadi.Shakl va mazmundagi xalqchil ruh jihatidan Berdaq ijodiga boy.Buningchun jahonga mashhur shotland shoiri Robert Berns (1759-1796)ni eslash

kifoyadir . Agar Berdaqning sara she'rlari jahon tillariga o'girilsa,fikrimizcha,Berdaq katta miqyosdagi Bernsdan kam bo'limgan darajada shuhrat topa oladi. Mutaxasislar Berdaqning o'nga yaqin yaqin dostoni borligini aytadilar .Bu dostonlarning aksari tarixiy mavzularda bo'lib ,qoraqalpoq xalqining kechmishi ,tarixidagi burilish nuqtalari ,jasorat ko'rsatgan qahramon farzandlari siymosini aka ettirishga bag'ishlangandir. Shoir o'zining "Shajara"dostonida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ayrim xalqlar ,Xususan,qoraqalpoq xalqining kelib chiqishi,tarixiy yo'li ,shajarasini badiiy aks ettiradi . "Shajara"da ,ayniqsa ,o'z yurtdoshlarining ilk ildizlaridan tortib ,19-asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixi ,urug'larning paydo bo'lishi,bo'linishdagi siljishlar ,ulararo ayrim nifoqlar ,milliy qahramonlar qiyofasi,ularningadolat uchun olib borgan kurashni ,xalq bo'lib birlashish jarayonlarni aks ettiradi. Asarda ,ayniqsa,inson xuquqi muammolariga ,alohida e'tibor berilganini ta'kidlash joiz."Shajara"-tarixiylik bilan badiiylik birlashish ketgan asardir.Undagi ayrim fikrlar ,ma'lumotlar ilmiy nuqtai nazaridan tarixiy bo'lib chiqmasligi mumkin.Biroq,bu narsa asarning katta qusuri deb qaralmasligi kerak."Shajara"mohiyatan badiiy asardir.Tarixning yaqqol timsoli deb aytsak bo'ladi.

Berdaq poetik,badiiy qaudratdan tashqari ,umuman,bilim jihatidan ham kuchli shaxs bo'lgan.Shundanki uning asarlarida qoraqalpoq xalqi hayotiga doir tarixiy ,jug'rofiy,lisoniy,adabiy,pedagogic nodir ma'lumotlardan tashqari jahon madaniyatiga doir Arastu,Aflatun, Attor, Bedil, Firdavsiy, Navoiy, Fuzuliy, Mahtumquli, Xorun-ar Rashid, Iskandar Zulqarnayn kabi siymolarga,"Xidoya"asari,Edige,Alpomish , Baxrom,Gulandon kabi badiiy qahramonlar haqidagi fikrlarga duch kelamiz.Masalan, "Omongeldi" dostonida shoir Qo'qon , Buxoro, G'ijduvon, Qashqar, Toshkent, Andijon, Marki shaharlarini tilga olib o'tadi.

Hozir ma'rifat va ma'naviyat masalalariga katta e'tibor berilayotgan bir paytda buyuk Berdaqni barchamiz yana bir bor alohida extirom bilan yodga olishimiz kerak .Qoraqalpoq xalqining buyuk ma'rifatparvari olg'a surgan ilm,axloq,madaniyat,odob,vijdon,iymon,adolat haqidagi g'oyalari jamiyatimiz va zamondoshlarimizning bugungi ravnag'iga munosib ta'sir ko'rsata oladi .Masalan,shoir she'rlaridan biridagi:

Tuproqdan yaratdi inson,
Anga berdi jism ila jon.
Kimir kofir ,kim musulmon,
Bari-odamning farzandi.
("Xorazm" majmuasidan)

Bu yubiley kunlari Berdaq asarlarini keksa muxlislar og'zidan yozib olib,ular mangulik umrga noil bo'lishi uchun beqiyos ulush qo'shgan Shamshet Xo'janiyozov va Sadirboy Mavlenov nomlarini hurmat bilan tilga olish barchamizning burchimizdir.

Berdaq ijodi va hayotini o'rganish ,ommalashtirishda katta mehnat qilgan

I.T.Sag'itov,Q.Oyimbetov va boshqalarning xizmatlarini ham alohida e'tirof etish kerak. Berdaq she'rlarining birida "Jahon menga havas bilan qarasin"-deb orzu qilgan edi.Biz buyuk shoirning orzulari ushalayotgan zamonda yashamoqdamiz. Zero, bugun butun qoraqalpoq diyori ,O'zbekistondagi she'riyatsevarlar ,xorijiy mamlakatlarda uning asarlarini o'qiyotgan kitobxonlar bu ulug' shoirga cheksiz hurmatlarini izhor qilmoqdalar.

Ming yildan so'ng qanday bo'lar ,ajabo,Bir ko'ray ,Luqmonning uzoq umrin ber!-deb yozgan edi Berdaq o'zining o'lmas asarlaridan birida.Bugun shoirning bu orzusi ham amalga oshib turibdi,deyish mumkin.Zero,Yaratgan o'z shoirni ulug' orzusiga noil etdi. Uning ruxi,yodi biz bilan hamisha barhayotdir.

Qo'llanilgan adabiyot:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/qoraqalpoq-she-riyati/berdaq-1827-1900>
2. <https://tafsilar.info/obshhestvo/v-karakalpakstane-otkrylas-sobornaja-mechet/amp/>
3. <https://aktualno.uz/ru/a/1160-sostoyalas-premera-dokumentalnogo-filma-o-berdaxe>